



DINIY MADANIY QADRIYATLARNI IFODALOVCHI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK FUNKSIYALARI

Rahimova Mohlaroyim Mahammadjon qizi

makhammadjanovna@gmail.com

+998974313221

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada diniy-madaniy qadriyatlarni ifodalovchi paremiologik birliklarning pragmatik xususiyatlari lingvopragmatik va lingvokulturologik yondashuvlar asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillaridagi diniy mazmunga ega maqollarning kommunikativ-pragmatik funksiyalari, xususan, nasihat (direktiv-yo‘naltiruvchi), ogohlantirish (preventiv) va tasdiqlash (assertiv) funksiyalari J. Searlning nutqiy aktlar nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqollarning polifunksional tabiati, ya’ni bir paremiologik birlikning turli nutqiy vaziyatlarda bir nechta pragmatik vazifalarni bajarishi yoritiladi. Maqolada diniy qadriyatlarning paremiologik birliklarda axloqiy, e’tiqodiy va ijtimoiy mazmun qatlamlari orqali ifodalanishi hamda ularning semantik tipologiyasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari diniy qadriyatlarni aks ettiruvchi maqollar xalqning milliy-madaniy dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy tajribasini avloddan avlodga uzatishda muhim lingvomadaniy vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *paremiologik birliklar, pragmatik funksiya, nutqiy aktlar nazariyasi, diniy qadriyatlar, lingvopragmatika, lingvokulturologiya, polifunksionallik, semantik tipologiya*

PRAGMATIC FUNCTIONS OF PAREMIOLOGICAL UNITS REPRESENTING RELIGIOUS AND CULTURAL VALUES

Rahimova Mohlaroyim Mahammadjon qizi



makhammadjanovna@gmail.com

+998974313221

Independent researcher of Uzbekistan State World Languages University

Annotation: This article investigates the pragmatic characteristics of paremiological units expressing religious and cultural values through linguopragmatic and linguocultural approaches. The study analyzes the communicative-pragmatic functions of religious proverbs in Uzbek and English, particularly advisory (directive), warning (preventive), and assertive functions, based on John Searle's Speech Act Theory. Furthermore, the multifunctional nature of proverbs, namely their ability to perform several pragmatic functions depending on the communicative context, is highlighted. The article also examines the representation of religious values through moral, belief-based, and social semantic layers within paremiological units and discusses their semantic typology. The findings reveal that proverbs reflecting religious values serve as significant linguocultural tools for transmitting national worldview, ethical norms, and social experience from one generation to another.

Keywords: *paremiological units, pragmatic function, Speech Act Theory, religious values, linguopragmatics, linguoculturology, multifunctionality, semantic typology.*

**ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ
ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ РЕЛИГИОЗНО-КУЛЬТУРНЫЕ
ЦЕННОСТИ**

Рахимова Мохларойим Махаммаджон кызы

makhammadjanovna@gmail.com

+998974313221

Исследователь Узбекского государственного университета мировых

языков



Аннотация: В данной статье исследуются прагматические особенности паремиологических единиц, отражающих религиозно-культурные ценности, с позиций лингвопрагматики и лингвокультурологии. На материале узбекских и английских пословиц анализируются их основные коммуникативно-прагматические функции, в частности назидательная, предупредительная и утверждающая функции, рассматриваемые в свете теории речевых актов Серля. Особое внимание уделяется полифункциональности пословиц, проявляющейся в способности одной паремии реализовывать несколько прагматических функций в зависимости от речевой ситуации и коммуникативного контекста. Кроме того, рассматривается семантическая типология религиозных ценностей, представленных через нравственные, религиозно-мировоззренческие и социальные смысловые компоненты. Результаты исследования показывают, что пословицы, отражающие религиозные ценности, выступают важным лингвокультурным средством сохранения и передачи национального мировоззрения, нравственных норм, общественного опыта и культурной идентичности. Исследование вносит вклад в развитие паремиологии, прагматики и лингвокультурологии, раскрывая взаимосвязь языка, культуры и системы ценностей в паремиологическом дискурсе.

Ключевые слова: паремиологические единицы, прагматическая функция, теория речевых актов, религиозные ценности, культурные ценности, лингвопрагматика, лингвокультурология, полифункциональность, семантическая типология, паремиологический дискурс.

Zamonaviy tilshunoslikda tilning faqat kommunikativ vosita sifatidagi vazifalarini emas, balki uning madaniy, kognitiv va pragmatik jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, lingvokulturologiya va



pragmalingvistika yo‘nalishlarining rivojlanishi natijasida til birliklarida aks etuvchi milliy-madaniy qadriyatlar, ijtimoiy me‘yorlar va diniy qarashlarni tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylandi. Til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda tarixiy tajribasining til vositalarida, ayniqsa, paremiologik birliklarda o‘z ifodasini topishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Pragmalingvistika nuqtayi nazaridan paremiologik birliklar muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi nutqiy aktlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning pragmatik salohiyati tinglovchini muayyan harakatga undash, ogohlantirish, nasihat qilish, tasdiqlash yoki baholash kabi illokutiv maqsadlar orqali namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan J. Searl tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi paremiologik birliklarning funksional-pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, V. Mieder, A. Krikmann, G.L. Permyakov kabi paremiolog olimlarning tadqiqotlarida maqollarning didaktik, normativ va kommunikativ xususiyatlari alohida ta’kidlangan.

Ushbu maqolaning maqsadi diniy madaniy qadriyatlarni ifodalovchi paremiologik birliklarning pragmatik funksiyalarini aniqlash va tavsiflash, ularning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini nutqiy aktlar nazariyasi asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida diniy mazmunga ega o‘zbek va ingliz maqollarining nasihat (direktiv), ogohlantirish (preventiv) va tasdiqlash (assertiv) funksiyalari hamda ularning polifunksional tabiati o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari diniy madaniy qadriyatlarning paremiologik birliklarda voqelanish mexanizmlarini aniqlash, ularning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Maqollarning yana bir funksional tasnifida L.V Grichenko bevosita taqiqlash mazmuniga ega paremiyalar odatiy vaziyatlarning shartli ravishda mustahkamlangan belgilari ekanligi, ularning illokutiv funksiyasi so‘zlovchining tinglovchining hissiy-irodaviy sohasiga faol aralashuvi hamda tinglovchini (yoki



tinglovchilarni) nomaqbul harakatlardan tiyishga qaratilganligini tahlilga tortgani, V.Miderning nasihat, ogohlantirish, tasdiqlash kabi funksiyalarga bo'lganligini inobatga oladigan bo'lsak, diniy konturga ega biz taqdim etmoqchi bo'lgan maqollarning funksiyaviy xususiyatlarini quyidagicha tasnif qilish mumkin.

Maqollarning nasihat, ya'ni direktiv-yo'naltiruvchi funksiyasi J. Syorl (John Searle) tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasida direktiv tipiga mansub bo'lib, muloqot ishtirokchisiga ma'lum harakat yoki tutumni tavsiya etish, yo'naltirish maqsadini ko'zda tutadi. Bunda maqol ko'p hollarda ochiq-oydin buyruq shaklidagi (eksplisit imperativ) yo'naltiruvchi nutq aktlaridan farqli ravishda, yashirin (implisit) va yumshatilgan ta'sir usulidan foydalanadi. Masalan, "Ko'ngli ochiqning – yo'li ochiq", "Keng bo'lsang, kam bo'lmaysan", "Insofi borning barakati bor", "Insofi yo'qning imoni yo'q", "Noinsofga erk bersang, elni talar", "Zulm eshikdan kirsang, insof teshikdan chiqadi", "Tek turganga shayton tayoq tutqazar", "Sabr – achchiq, mevasi – shirin", "Sabrsiz baliq sog'asidan ilinar", "Qanoat to'rga eltar, ochko'zlik – go'rga", "Ne eksang, shu ko'karar" kabi maqollar normativ xulqni tavsiya qiladi, ya'ni bilvosita direktiv hisoblanib, nasihat, pand, ogohlantirish kabi axborotni shaklan xabar bersa-da, mazmunan "shunday qil", "bunday qilma" degan yo'naltiruvni anglatadi. Ingliz tilidagi "Charity begins at home" maqoli ham yaxshilikni yaqinlardan boshlashga bevosita buyruq bilan emas yashirin axloqiy yo'l ko'rsatish orqali nasihatimiz undovni aks ettiradi.

Shuningdek, ko'plab maqollarda direktiv, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri ogohlantirish funksiyasi, ya'ni preventiv kommunikativ strategiya orqali yuzaga chiqadi. Ogohlantirish funksiyasi maqolning preventiv-didaktik yo'nalishini ifodalab, tinglovchini mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan ogoh qilishga qaratilgan. Bunday maqollarda "bunday qilma" degan ichki ogohlantiruvchi mazmun yotadi, ba'zan maqollarning ikkinchi qismida ogohlantirish natijasi ham beriladi. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan bu funktsiya xavf-xatar ssenariylarini faollashtirib, ongda ogohlik holatini shakllantiradi. "Shoshgan ishga shayton qo'shilar",



“Nafsning so‘ziga kirma, xiyonatga yo‘l ochar”, “Sabrsiz baliq sog‘asidan ilinar”, “Nafsini tiymagan kishi ulton bo‘lur”, “Besabrning nafsi shoshar”, “Gunohning uzri gunohdan og‘ir”, “Noinsofni tuz konida ko‘r”, “Sabrsizlik – shaytonning sifati”, “Yomon til yo jonga urar, yo imonga”, “Qizg‘anganing qizil itga yem bo‘lar” kabi maqollar kutiladigan salbiy oqibatni ta‘kidlash orqali tinglovchini noto‘g‘ri harakatdan tiyilishga undaydi. Xavf yoki noto‘g‘ri xatti-harakatdan ogohlantirish ingliz paremiologiyasida “Pride goes before a fall” (kibr oqibatidan), “The road to hell is paved with good intentions” (yaxshi niyat ham xato natijaga olib kelishi mumkinligidan), “Haste makes waste” (shoshqaloqlikdan) maqollarida o‘z aksini topadi. Bu esa direktiv illokativ kuchning preventiv (oldini oluvchi) xususiyatini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, maqollarning tasdiqlash funksiyasi ham majud bo‘lib, J.R. Syorl (John Rogers Searle) klassifikatsiyasiga tayanadigan bo‘lsak, bu xususiyat assertiv (yoki reprezentativ) tipga mansub bo‘lib, ma‘lum holatning mavjudligini, voqelikning haqiqiylikni tasdiqlashga qaratilgan. Maqollarda bu funksiya jamiyat tajribasi orqali qat‘iy tasdiqlangan bilimlarni ifodalash orqali amalga oshadi hamda tasdiqlash qat‘iy, shubhasiz shakl kasb etadi. Bunday maqollar asosan voqelik, hayot tajribasi va xalqona dunyoqarash asosida shakllangan umumiy haqiqatlarni bayon qiladi hamda nutq egasining ma‘lum bir holat yoki hodisa haqidagi ishonchini ifodalaydi. Tasdiqlovchi illokativ funksiya bilan aytilgan maqollarda asosiy maqsad tinglovchini bevosita harakatga undash emas, balki mavjud yoki kutiladigan holatni haqiqat sifatida taqdim etishdan iborat bo‘ladi.

Tahlil qilingan materiallar shuni ko‘rsatadiki, “Mehnatsiz rohat bo‘lmas”, “Gunohsiz odam podshodan qo‘rqmas”, “Imoni yo‘qning burdi yo‘q”, “Vijdonsiz – imonsiz”, “Bekordan xudo bezor”, “Sabr – umr xazinasi”, “Rizq kamimas, banda ochidan o‘lmas”, “Ne eksang, shu ko‘karar” kabi maqollar mazmunan real voqelikni tasdiqlaydi va umumlashgan hayotiy qonuniyatni ifodalaydi. Shuningdek, “Honesty is the best policy”, “God helps those who help themselves”, “All things are possible



with God” maqollarida mavjud axloqiy haqiqatni tasdiqlaydi, umumiy donolikni mustahkamlaydi. Ushbu birliklarda buyruq yoki taqiqlash mavjud bo‘lmay, ular tinglovchiga axborot berish va ijtimoiy tajribani mustahkamlash vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, ayrim tasdiqlovchi maqollar gibrid xarakterga ega bo‘lib, ular shaklan assertiv bo‘lsa-da, mazmunan bilvosita yo‘naltiruvchi ma’noni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, “Ko‘ngli ochiqning yo‘li ochiq”, “Insofi borning barakati bor”, “Keng bo‘lsang, kam bo‘lmaysan”, “Sabrli ming yashar, sabrsiz oz yashar”, “Nafsini tiygan kishi sulton bo‘lur” kabi maqollarda avvalo ma’lum bir holat tasdiqlanadi, biroq ayni paytda ijobiy xulq-atvor modeli ham bilvosita tavsiya etiladi. Bunday maqollarda illokativ kuch nuqtayi nazaridan assertivlik ustun bo‘lsa-da, ularning perlokrativ ta’siri direktiv xarakter kasb etadi.

Real nutq amaliyotida o‘zbek xalq maqollari qat’iy bitta pragmatik funktsiya bilan cheklanmay, aksariyat hollarda bir nechta funktsiyaning uyg‘unlashuvi orqali murakkab kommunikativ ta’sir hosil qiladi. Shu bois maqollarning nasihat, ogohlantirish va tasdiqlash funktsiyalari ko‘pincha o‘zaro chatishgan holda namoyon bo‘lib, ularning aniq pragmatik vazifasi nutqiy vaziyat va kontekst asosida belgilanadi. Masalan, “Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lsang, yomondan burun o‘lasan, yaxshi bilan sirdosh bo‘lsang, yaxshilik bilan unasan” maqolida do‘st tanlash masalasiga oid nasihat bilan birga, noto‘g‘ri tanlovning salbiy oqibatlari haqida ogohlantirish ham mujassam. Ushbu maqol real nutqda tinglovchini ijtimoiy munosabatlarda ehtiyotkor bo‘lishga undaydi va hayotiy tajribaga tayangan xulosani yetkazadi. “Kamoli imon – sabr” hamda “Sabr – umr xazinasi” kabi maqollarda tasdiqlash va nasihat funktsiyalari uyg‘unlashgan. Bu birliklarda sabr inson kamolotining muhim sharti sifatida umumiy haqiqat darajasida tasdiqlanadi va ayni paytda sabrli bo‘lish bilvosita tavsiya etiladi. Bunday maqollar ochiq buyruq bermasdan, xulqiy norma shakllantiradi.

Shuningdek, “As you sow, so shall you reap” maqoli bir vaqtning o‘zida ham didaktik (sabab–oqibatni o‘rgatadi), ham ogohlantiruvchi (yomon ish oqibatidan



ogohlantiradi) hamda tasdiqlovchi (axloqiy adolatni tasdiqlaydi) funksiyalarni bajarsa, “You cannot serve two masters” normativ (sodiqlik me’yori), ogohlantiruvchi (ikkiyuzlamachilik oqibatlarini) va direktiv (to’g’ri yo’lni ko’rsatadi) funksiyalar kesishuvini namoyon qiladi.

Ogohlantirish va tasdiqlash funksiyalarining birlashuvi “Shoshilgan ishga shayton qo’shilar” maqolida yaqqol ko’zga tashlanadi. Ushbu maqol shoshqaloqlikning zararli oqibatlarini ogohlantirish orqali bildiradi va shoshilish bilan xato o’rtasidagi bog’liqlikni hayotiy qonuniyat sifatida tasdiqlaydi.

Bir xil maqolning turli kontekstlarda turli pragmatik funksiyalarni bajarishi maqollarning muhim xususiyatlaridan biridir. Jumladan, “Sukutda hikmat ko’p” maqoli nasihat kontekstida kamgaplikni tavsiya etsa, ogohlantirish kontekstida ortiqcha so’zning salbiy oqibatlarini anglatadi, tasdiqlash kontekstida esa kamgaplik va donolik o’rtasidagi bog’liqlikni umumiy haqiqat sifatida ifodalaydi.

Maqollarning polifunksionalligi ularning kognitiv tabiatiga ham bog’liq. “Ne eksang, shu ko’karar” maqoli sabab–oqibat munosabatiga asoslangan sxematik bilimni faollashtirib, inson harakatlari va ularning natijalari o’rtasidagi bog’liqlikni baholash imkonini beradi. Shuningdek, “Ko’ngli ochiqning – yo’li ochiq” hamda “Insofi borning barakati bor” kabi maqollar axloqiy sifatlar bilan ijtimoiy muvaffaqiyat o’rtasidagi aloqani metaforik tarzda ifodalaydi.

Diskurs darajasida maqollar muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. “Yiqilganni tepib o’tma, suyab o’t” maqoli suhbatdoshlar o’rtasida ijtimoiy birdamlik va hamdardlikni kuchaytirsa, “Gunohsiz odam podshodan qo’rqmas” maqoli argumentativ vazifani bajaradi. “Uying tor bo’lsa ham, ko’ngling keng bo’lsin” kabi maqollar esa tarbiya va pand-nasihat diskursida ritual xarakter kasb etadi.

Diniy madaniy qadriyatlar paremiologik birliklarda turli semantik maydonlar orqali voqealantirishi jihatdan ularni semantik tipologiyalash diniy qadriyatlarning qaysi konseptual sohalar bilan bog’liq holda ifodalanishini aniqlash imkonini beradi.



Mazkur yondashuv M. Scheler tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlar iyerarxiyasi g'oyalariga hamda V.A. Maslova, A. Verjbitska, A.K. Griffin hamda M.R. Galiyeva tomonidan ilgari surilgan lingvomadaniy konseptlar nazariyasiga tayangan holda amalga oshiriladi.

Diniy madaniy qadriyatlarning muhim jihatlaridan biri ularning semantik murakkabligi va ko'p qatlamli ma'noga egaligidir. Shu bois semantik tipologiya diniy qadriyatlarning mazmuniy tuzilmasini, ramziy ifodasini va kontekstga bog'liq talqinini aniqlashga xizmat qiladi. M.R. Galiyeva tomonidan amalga oshirilgan tematik tahlil diniy mazmunga ega paremiologik birliklarni aksariyati oppozitiv xarakterga ega 10 ta asosiy tematik guruhga ajratish imkonini berdi. Mazkur guruhlarga Xudo va shayton, imon va kufr, yaxshilik va yomonlik, bilim va bilimsizlik, boylik va kambag'allik, hayot va o'lim kabi konseptual qarama-qarshiliklar, shuningdek insonning ijobiy va salbiy sifatlari, ijtimoiy munosabatlar, oilaviy munosabatlar hamda cherkov va ruhoniylarga munosabatni ifodalovchi tematik qatlamlar kiradi. Ushbu oppozitiv modellar diniy dunyoqarashning binar asosda shakllanishini aks ettirib, diniy qadriyatlarning paremiologik birliklarda axloqiy, e'tiqodiy va ijtimoiy mazmun qatlamlari orqali tizimli namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Griffin tomonidan amalga oshirilgan tematik-semantik tasnif diniy paremiologik birliklarni mazmuniga ko'ra aniq tematik bo'limlarga ajratishga asoslanadi. Muallif diniy maqollarni Xudo, e'tiqod, ibodat, taqdir, yaxshilik va fazilatlar, gunoh va yovuzlik, bilim va donolik, mehnat va kundalik hayot, jamiyat va inson, hamda hayot va o'lim, kabi tematik guruhlarga ajratadi. Ushbu tasnif diniy maqollarning mazmuni ilohiy-e'tiqodiy, axloqiy va ijtimoiy konseptlar atrofida markazlashganini ko'rsatib, diniy qadriyatlarning paremiologik birliklarda tizimli va ko'p qatlamli semantik tuzilma sifatida namoyon bo'lishini asoslaydi.

Bizningcha ham, paremiologik birliklarda diniy qadriyatlar ko'pincha bitta aniq ma'noga emas, balki o'zaro tutashgan bir nechta semantik qatlamlarga,



masalan, axloqiy, e'tiqodiy va ijtimoiy mazmun qatlamlarining o'zaro tutashuvi asosida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Searle, J. R. A Taxonomy of Illocutionary Acts // Gunderson K. (Ed.). Language, Mind and Knowledge. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1975. – Vol. 7. – P. 344–369.
2. Mieder, W. Proverbs: A Handbook. – Westport, Connecticut: Greenwood Press, 2004. – XVI + 337 p.
3. Grichenko, L. V. Конструкции с семантикой прямого запрета в британских поговорках // Russian Linguistic Bulletin. – 2022. – № 6 (34). – С. 1–4. DOI: 10.18454/RULB.2022.34.3.
4. Гальперин, И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 139 с.
5. Маслова, В. А. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – 4-е изд. – Москва: Академия, 2010. – 208 с.
6. Wierzbicka, A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – New York: Oxford University Press, 1997. – 317 p.
7. Griffin, A. K. Religious Proverbs: Over 1600 Adages from 18 Faiths Worldwide. – New York: McGraw-Hill Book Company, 1963. – XIV + 232 p.
8. Галиева, М. Р. Отражение мифолого-религиозного сознания в языковой картине мира: дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 2019. – 206 с.
9. Permyakov, G. L. From Proverb to Folk-Tale: Notes on the General Theory of Cliché. – Moscow: Nauka Publishing House, 1979. – 240 p.



10. Krikmann, A. Proverb Semantics: Studies in Structure, Logic and Metaphor. – Burlington: The University of Vermont, 2009. – 230 p.
11. Mirzayev, T., Musoqulov, A., Sarimsoqov, B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.
12. O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1990. – 528 b.
13. O‘zbek va turk maqollari, iboralari. – Toshkent: Fan, 1998. – 256 b.
14. Ashurova, D. U., Galiyeva, M. R. Stylistics of Literary Text. – Tashkent. 2016. – 204 p.
15. Sharifian, F. Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2017. – 180 p.